



Symposium on Life and Environmental Sciences

Hosted Online from Paris, France

Date: 17th February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

QISHLOQ XO‘JALIGIDA KADRLAR SALOHIYATINI BOSPQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharofiddinov Nozimjon O‘ktam o‘g‘li
Magistrant, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida kadrlar salohiyatini qayta ishlab chiqarish tizimining hozirgi holati tahlil qilingan hamda amalda qo‘llanilayotgan metodologik yondashuvlarning samaradorligi pastligi asoslangan. Muammoni hal etish maqsadida kadrlar salohiyatini qayta ishlab chiqarishni tizimli boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Kontseptual model, kontseptsiya, boshqaruv mexanizmi va maqsadli dastur orqali agrar sohaning raqobatbardoshligini oshirish, malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish hamda qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojini ta‘minlash imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kadrlar salohiyati, qayta ishlab chiqarish, tizimli boshqaruv, qishloq xo‘jaligi, agrosanoat majmuasi, professional tayyorlash, malaka oshirish.

Kirish

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini isloh qilish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va global raqobat sharoitida agrar sohaning barqaror rivojini ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda moddiy-texnik resurslar bilan bir qatorda inson kapitali, ya‘ni kadrlar salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida boshqaruv tizimining yangilanishi, klaster va kooperatsiya shakllarining joriy etilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanishning



Symposium on Life and Environmental Sciences

Hosted Online from Paris, France

Date: 17th February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

kengayishi kadrlarga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Biroq iqtisodiy munosabatlar transformatsiyasi jarayonida kadrlar salohiyatini qayta ishlab chiqarish tizimida muayyan uzilishlar va nomutanosibliklar yuzaga keldi.

Asosiy qism. Yuqori malakali mutaxassislarining intellektual va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, ularning kasbiy faolligi va bilim saviyasini shakllantirish hamda rivojlantirishda ta’lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta’limning mazkur xususiyatlari shaxs, jamiyat va davlat miqyosida namoyon bo‘lib, ushbu yondashuv mamlakatning ilmiy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, aholining ma’naviy kamoloti va huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Agrar ta’lim tizimi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyliги, tabiiy-iqlim omillariga kuchli bog‘liqligi hamda mahsulot etishtirish jarayonida yuzaga keladigan turli tavakkalchiliklar bilan boshqa sohalardan farqlanadi. Bunday murakkab sharoitlarda agrar tarmoqda faoliyat yuritayotgan rahbarlar va mutaxassislar belgilangan maqsadlarga erishish uchun zamonaviy boshqaruv va menejment usullaridan samarali foydalanishi zarur bo‘ladi.

Hozirgi zamonaviy ta’lim jarayoni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga keng imkoniyat yaratmoqda. Boshqaruv usullarining keng qo‘llanilishi rahbarlar va xodimlar o‘rtasida tizimli hamkorlikni shakllantirsada, menejment instrumentlarining xilma-xilligi aniq vazifalarni bajarishda eng maqbul usulni tanlashni murakkablashtirib yubormoqda.

Shu nuqtai nazardan, agrosanoat majmuasida yuqori samaradorlikka erishish uchun qishloq xo‘jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining uzviyligi, natijadorligi va innovatsion yo‘nalishlarga mosligiga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Bu esa agrar ta’lim



Symposium on Life and Environmental Sciences

Hosted Online from Paris, France

Date: 17th February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

tizimida hamda unga bog‘liq tashkilotlarda innovatsion yondashuvlar asosida yaxlit tizimni shakllantirish va amalda joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilashni taqozo etadi.

Jumladan, ta‘lim tizimini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, ta‘lim samaradorligini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish, uzluksiz ta‘limni ta‘minlash hamda ta‘lim sohasining me‘yoriy-huquqiy bazasini muntazam takomillashtirib borish ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi.

Aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarning etarli darajada belgilanmaganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga sust joriy etilishi, ta‘lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyaning zaifligi qishloq xo‘jaligini malakali kadrlar bilan ta‘minlash samaradorligini pasaytirmoqda. Natijada sohada kadrlar taqchilligi, yosh mutaxassislarning qishloq hududlarida mustahkamlanmasligi va mehnat unumdorligining pastligi kuzatilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion ishlab chiqarish usullari va “aqli qishloq xo‘jaligi” elementlarining joriy etilishi agrar sohada mehnat mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mutaxassisi faqat an‘anaviy agrotexnik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, raqamli platformalardan foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va bozor talablariga tez moslashish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

O‘zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirish yo‘lini tanlash kadrlar ta‘minoti tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Biroq amalda mavjud kadrlar salohiyatini qayta ishlab chiqarish tizimi bu talablarga to‘liq javob bermayapti. Asosiy muammo davlat boshqaruv organlari, ta‘lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sub’ektlari o‘rtasidagi hamkorlikning etarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq.



Symposium on Life and Environmental Sciences

Hosted Online from Paris, France

Date: 17th February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Muammoni hal etish maqsadida qishloq xo‘jaligida kadrlar salohiyatini qayta ishlab chiqarishni tizimli boshqarish kontseptsiyasini joriy etish taklif etiladi. Ushbu kontseptsiya kontseptual model, boshqaruv mexanizmi va maqsadli dasturni o‘z ichiga oladi. Kontseptual model kadrlar salohiyatini shakllantirish, baholash, prognoz qilish va rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi. U kadrlarga bo‘lgan hozirgi va istiqboldagi ehtiyojni aniqlash, ta‘lim tizimini bozor talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Kadrlar salohiyatini boshqarish mexanizmining asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligida malakali kadrlar tayyorlash jarayonini jadallashtirish va sohaning barqaror rivojini ta‘minlashdan iborat. Mexanizm davlat organlari, agrar korxonalar, ta‘lim muassasalari va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslanadi. Ushbu mexanizm doirasida tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik usullardan foydalanish nazarda tutiladi. Bu mehnat motivatsiyasini oshirish, yosh mutaxassislarni qishloq hududlariga jalb etish va ularning kasbiy o‘sishi uchun shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida “Qishloq xo‘jaligida kadrlar salohiyatini boshqarish tizimini rivojlantirish”ga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bunday dasturlar doirasida kadrlar ehtiyojini baholash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish choralari kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yuqori malakali kadrlar salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishda ta‘lim tizimining o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat mutaxassislarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, balki ularning intellektual va ma‘naviy kamolotiga ham xizmat qiladi. Bu jarayon shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unlashuvini ta‘minlab, mamlakatning ilmiy-



Symposium on Life and Environmental Sciences

Hosted Online from Paris, France

Date: 17th February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

intellektual salohiyati va inson kapitali rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agrar sohaning mavsumiylik, tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqlik va ishlab chiqarishdagi tavakkalchiliklar bilan tavsiflanishi qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash tizimiga alohida talablarni qo'yadi. Bunday sharoitda zamonaviy boshqaruv va menejment usullarini puxta o'zlashtirgan, raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" to'g'risidagi PF 5853-son Farmoni.
2. Abdurahmonov Q.X. "Inson kapitali va mehnat bozori rivoji" - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Tursunov B.O., Rahimov F.M. "Agrar sohada boshqaruv va kadrlar salohiyati" - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Xolmo'minov Sh.R. "Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarini boshqarish masalalari" Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2021, №3.
5. Normatov A.A., Saidov J.B. "Qishloq hududlarida inson kapitalini rivojlantirish omillari" Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. - 2022, №1.